



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-noyabr

667-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llari bo‘ylab katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-oktabrdagi 710-son qarori ijrosi haqida”gi 559-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

Avtotransport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash hamda belgilangan og‘irlik va gabarit meyorlariga qo‘yilgan talablarni yanada kuchaytirish, respublikadagi barcha toifadagi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning xizmat ko‘rsatish muddatini uzaytirish, ularni saqlash xarajatlarini qisqartirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llari bo‘ylab katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-oktabrdagi 710-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 559-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 28-oktabrdagi 710-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 559-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2011-yil 26-dekabrda 342-son qarori bilan avtotransport vositalarining ruxsat etilgan og‘irlik va gabarit parametrlari belgilanganligi hamda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanishi tartibga solinganligi;

Vazirlar Mahkamasining “Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo‘lishlari, yuk olib o‘tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to‘g‘risida” 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan xorijiy davlatlarning katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yurishi uchun to‘lovlar belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Transport vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

avtomobil yo‘llarida vazn va hajm parametrlari nazorati bo‘yicha zamonaviy o‘lchov vositalari bilan jihozlangan statsionar va ko‘chma shoxobchalar (keyingi o‘rinlarda – o‘lchov-nazorat shoxobchalari) o‘rnatish va ulardan foydalanish sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish;

o‘lchov-nazorat shoxobchalari o‘rnatiladigan joylarni elektron onlayn auksion savdolarida g‘olib bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga yigirma yil muddatga ijara asosida va boshqa tadbirkorlik subyektiga o‘tkazish huquqi bilan berish;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Avtomobil yo'llari qo'mitasi):

o'lchov-nazorat shoxobchalari o'rnatiladigan joylarni (hududlarni) Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Yo'l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o'rinlarda – Yo'l harakati xavfsizligi xizmati) va Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda – Transport nazorati inspeksiyasi) bilan kelishgan holda belgilashi va mazkur joylar (hududlar) elektron onlayn auksion savdolarida g'olib bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga belgilangan talablar bilan ijara huquqi asosida berilishi;

Bunda ushbu joylar (hududlar) atrofida transport vositalari aylanib o'tishi mumkin bo'lgan avtomobil yo'llariga tasdiqlangan dislokatsiya va umumiy texnik talablar asosida ko'chma shoxobchalar tashkil etilishiga ruxsat berilishi;

tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qiladi va Transport nazorati inspeksiyasi bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'rnatilgan o'lchov-nazorat shoxobchalarini muntazam ravishda nazorat qilib borishi;

b) tadbirkorlik subyektlari:

o'lchov-nazorat shoxobchalarining uskunalarini va dasturiy-texnik vositalarini belgilangan texnik talablarga muvofiq xarid qiladi va o'rnatishi;

o'lchov-nazorat shoxobchalarini o'ziga ijara huquqi asosida berilgan avtomobil yo'li joyida (hududida) o'z mablag'lari hisobidan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va saqlash ishlarini amalga oshirishi hamda foydalanish xarajatlarini qoplashi;

v) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi belgilangan meyordan ortiq yuklarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalari respublika hududiga chet davlatlardan import qilinishida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 237-son qarori bilan tasdiqlangan muomalaga chiqarilayotgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashi;

g) Transport nazorati inspeksiyasi avtomobil yo'llarida belgilangan meyordan ortiq yuk bilan harakatlanayotgan avtotransport vositalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatishi;

d) noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkasidan (karyerlardan) foydalanuvchilar yuk avtotransport vositalari og'irlik meyorlariga rioya qilgan holda yuklanishi va og'irlik meyorlardan ortiq bo'lganlarini yer qa'ri uchastkalari hamda ishlab chiqarish korxonalarini hududidan avtomobil yo'llariga chiqmasligini ta'minlashga mas'ul bo'lishi;

Bunda:

2025-yil 27-yanvardan boshlab noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini beradigan ruxsatnoma va/yoki alohida bitimlarning yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish talab va shartlarida ruxsatnoma egasi tomonidan noruda foydali qazilma konida avtotransport vositalarining og'irlik parametrlarini o'lchashga mo'ljallangan tarozilarni o'rnatish hamda yuk avtotransport vositalari meyor talablarida yuklanishi va yo'lga chiqishi bo'yicha majburiyatlar kiritilishi;

Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan noruda foydali qazilma konida yuk avtotransport vositalariga meyordan ortiq yuk yuklanib, avtomobil yo'llarida harakatlanganligi holatlari aniqlangan taqdirda, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi belgilangan tartibda ruxsatnoma egalari nisbatan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib quyish yoki muddatidan oldin bekor qilishga oid tasir choralari ko'rishi;

quyidagilar:

Avtomobil yo'llarida og'irlik va gabarit nazorati bo'yicha statsionar va ko'chma shoxobchalarni tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Mahalliy yuk tashuvchilarning katta hajmli va og'ir vaznli avtotransport vositalarining avtomobil yo'llari bo'yab harakatlanishi uchun to'lovlarni amalga oshirish hamda harakatlanish va yuk tashish qoidalarini buzganlik natijasida yetkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

a) elektron onlayn auksion savdolariga qo'yish uchun o'lchov-nazorat shoxobchalari o'rnatiladigan joylarning minimal qiymati (boshlang'ich narxi):

xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida – bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari;

davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida – bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari;

mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida – bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari miqdorida belgilanishi;

Elektron onlayn-auksion savdolaridan tushgan mablag'lar elektron savdo maydoni operatori xarajatlarini chegirib tashlangan holda, Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini rivojlantirish va ko'llab-quvvatlash jamg'armasiga (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) yo'naltirilishi;

b) ishga tushirilgan o'lchov nazorat shoxobchalari orqali qayd etilgan yuk tashish qoidalari (tegishli ruxsatnomasiz og'ir vaznli, yirik gabaritli, yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o'lchamlari, shuningdek, umumiy haqiqiy vazni, o'qqa tushuvchi og'irligi belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarida yo'lga chiqish, xuddi shuningdek, ruxsatnomada ko'rsatilgan harakat yo'nalishidan chetga chiqish) buzilganligi uchun undirilgan jarimalar summasidan tushgan mablag'larning:

dastlabki 2 yil davomida:

40 foizi – tadbirkorlik subyektiga;

35 foizi – Jamg'armaga;

15 foizi – Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga;

10 foizi – O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga;

2 yil o'tganidan so'ng:

30 foizi – tadbirkorlik subyektiga;

45 foizi – Jamg'armaga;

15 foizi – Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga;

10 foizi – O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltirilishi;

Bunda fuqarolarga yuboriladigan jarimalar bo'yicha pochta, internet va SMS xabarnomalar uchun sarflanadigan hamda jarimalarni saralash va ular bo'yicha qaror qabul qilish ishlariga shartnoma asosida jalb etiladigan ma'muriy amaliyot xodimlari uchun sarflanadigan xarajatlar Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

ushbu qarorning 3 va 5-bandlari, qarorga 1,2-illovalar hamda 3-ilovaning 14 va 15-bandlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kirishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**